



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

## JAHON SHE'RIYATIDA HIND VEDALARI HAMDA EPOSLARINING TUTGAN O'RNI

G'ofurova Nazokat Komiljonovna,

*missphoenixgirluzb@gmail.com*

*O'zbekiston Milliy Universiteti 2-kurs tayanch doktoranti*

*O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI*

*XORIJIY FILOLOGIYA FAKULTETI*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15183460>

**Annotatsiya.** *Dunyo she'riyati tarixida Hindiston vedalari hamda buyuk eposlarining o'rni beqiyos. Hajman katta bo'lgan mana shu asarlar nazmiy yo'lda yaratilgani ham ayniqsa diqqatga sazovor. Dunyoning o'zidek qadimiy bo'lgan mashhur hind eposlari hamda ularni axloqiy yuksalishgan chorlaydigan vedalar kitoblari dunyo she'riy sahnasida eng oldingi o'rinlarni egallab kelmoqda. Ushbu tezisda asrlar mobaynida avloddan avlodga o'tib, insoniyatning buyuk o'tmishiga ishora qiladigan nazmiy adabiyotning qadimiy namunalari - qadimgi hind eposlari hamda vedalari haqida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Veda, Rig veda, Yajur veda, Sama veda, Maxobxorot, Ramayana, Javohirla'l Neru, maxoraba, mandala, hikoya ichida hikoya.*

**Kirish qismi.** Adabiyotning o'ziga xos alohida qobiliyat talab etadigan janrlaridan biri bo'lgan she'riyat qadim va buyuk tarixga egaligi bilan ahamiyatlidir. Yer yuzidagi xalqlar va millatlar adabiyotning shakllanish jarayoniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, har bir millat va elatning qaysidir ma'noda tarixiy hamda qadimiy she'riyatiga duch kelamiz. She'riyat ulkan ma'nolarni xajman kichik misralar ichiga jo eta oladigan, inson yuragining nozik torlarini chertadigan, ba'zan baxt-tole'ga, ba'zan esa xayolot olamiga g'arq bo'lishga majbur qiladigan janr hisoblanadi. Insoniyat svilizatsiyasi, madaniyati va adabiyotida o'rni juda katta va ahamiyatli bo'lgan she'riyatning o'ziga xos tarixi va shakllanish jarayonlari borki, nazm dastlab paydo bo'lganidan to shu bugungacha sayqallanmoqda va rivoj topmoqda. Ushbu tezisda asrlar mobaynida avloddan avlodga o'tib, insoniyatning buyuk o'tmishiga ishora qiladigan nazmiy adabiyotning qadimiy namunalari - qadimgi hind eposlari hamda vedalari haqida so'z yuritiladi.

**Asosiy qism.** Asrlar mobaynida yashab kelayotgan va tobora taraqqiyot tomon yuksalayotgan insoniyat o'tmishiga razm solsak, she'riyat hamisha insonning eng yaqin hamrohi bo'lib kelganiga ishonch hosil qilamiz. Bunga misol sifatida hindlarning vedalarini aytishimiz mumkin. "Veda" so'zi Sanskrit tilidagi "Ved" - ya'ni "Bilim" so'zidan olingan bo'lib, Hinduizm diniga oid eng qadimiy matnlardan iboratdir. Ushbu matnlar alohida gimnlar ya'ni madhiyalardan iborat bo'lib,



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

hindlarning turli xudolari hamda ilohalariga atalgan.<sup>1</sup> Tahminlarga ko'ra, vedalar miloddan avvalgi ikki mingyillikning oxiri, bir mingyillikning boshlarida yaratilgan va ularning to'rt turi mavjud: Rigveda, Yajurveda, Samaveda hamda Atarvaveda "Rigveda" ularning eng qadimgi tarixiy namunasi hisoblanadi. Dastavval og'zaki tarzda avloddan avlodga o'tib kelgan hindlarning Vedalarining yozma nusxalari miloddan avvalgi 1500-500-yillarda shakllana boshlagan. "Rigveda"da shamol, yomg'ir, momaqaldiroq, quyosh, daryo, tog'lar kabi tabiat hodisalari va jismlariga atalgan madhiyalar va qo'shiqlar mavjud.<sup>2</sup> "Rig Veda" vedasi "Sukta" deb nomlanadigan 1028 ta gimn-madhiya va shuningdek, "Mandala" deb nomlanadigan o'nta kitobdan iborat.

Dunyo miqyosida nazmiy uslubda yaratilgan qadimiy jahon adabiyoti namunalaridan biri Hindlarning eposlaridir. Hindlarning "Ramayana" va "Mahabharata" yoki "Maxobxorot" eposlari epopeyalar deb ham yuritiladi. Epopeya atamasiga Izzat Sulton: "Epopeyada xalq va mamlakat uchun juda muhim bo'lgan tarixiy voqealar, muammolar asarning mazmunini tashkil etadi", - deya to'xtalib o'tadi.<sup>3</sup> Hindiston siyosiy va jamoat arbobi Javohirlal Neru "Mahabharata" va "Ramayana" eposlari haqida aytar ekan: "Omnia ongiga bu ikki asardek uzoq muddat davomida hamda chuqur ta'sir qila olgan kitobni boshqa hech bir mamlakatda ko'rmadim", - degan edi. Hindiston xalqining qadim eposlaridan biri "Ramayana" dir. Epos "Mahabharata" eposidan qadimiyroq deb olimlar iddao qilishadi va epos miloddan avvalgi IV asrda Sharqiy Hindistonda yaratilgan va asar muallifi Valmiki deb tahmin qilinadi. Asar 7 kitobdan iborat. Bu kitoblar bir-biridan farq qilgani uchun ham asarga keyinchalik o'zgartirish kiritilgan deb aytishadi.<sup>4</sup> Kaliforniya Universiteti professori Robert Goldman aytishicha, "Ramayana"ning eng qadimiy qismlari miloddan avvalgi VII asrga borib taqaladi. Asarda Buddizm dini haqida umuman gap ketmagani uchun, epos Buddizm dini shakllangunga qadar, ya'ni miloddan avvalgi V asrgacha yaratilib bo'lingan deb tahmin qilinadi. Ammo hind tarixchisi R.Ch.Majumdar fikriga ko'ra, har ikki epos ham yangi hinduizmning ta'siri o'laroq yaratilgan.<sup>5</sup> "Ramayana" she'riy tarzda Ingliz tiliga T.H Ralph hamda M.A Griffiths tarjimai ostida "The Ramayan of Valmiki" nomi bilan 2008-yilda chop etiladi. Ammo undan avval asar ikki britaniyalik missionerlar - u.Karey hamda Joshualar

<sup>1</sup> <https://textbook.com> The Vedas

<sup>2</sup> O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. - Davlat ilmiy nashriyoti, 2002, 2-jild, B. 410-411

<sup>3</sup> Izzat Sulton Adabiyot nazariyasi.-O'qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent 2005, 172-b

<sup>4</sup> O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat Ilmiy tashkiloti Toshkent "R" harfi 59-b

<sup>5</sup> R.Ch.Majumdar Ancient India.- JP Jain for motilal Banarsidass (P) Ltd, P-195



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

tomonidan ham tarjima qilingan bo'lib, ular faqatgina asarning dastlabki ikki qisminigina tarjima qila olishgan edi xolos.<sup>6</sup>

Hindlarning falsafiy va axloqiy pand-nasixatlari bilan yo'g'rilgan "uzoq muddat davomida hamda chuqur ta'sir qila olgan kitob"i bu "Mahabharata" eposidir. Dastlab epos og'zaki tarzda yaratilgan bo'lib, keyinchalik uning Sanskrit tilida yozma variantlari paydo bo'lgan. Epos Kauravlar va Pandavlar haqida bo'lib, ular qirol Bharataning avlodlari edi. Kauravlar va Pandavlar bir-biriga amakivachchalar bo'lib, Pandavlarning otasi qirol Pandu hamda Kauravlarning otasi Dhritarashtra edi. "Mahabharata" eposi Hastinapur (Bugungi Dehli) taxti uchun bo'ladi. Hindlar buyuk va tarixiy eposlarini tosh qoyalarga ham muhrlab, o'z san'atlarini namoyish etishgan. "Mahabharata" eposining muallifi deb Vyasa deb (yoki Vyasadeva) nisbat beriladi.<sup>7</sup> Epos miloddan avvalgi III asr va milodiy III asr oralig'ida yaxlit va mukammal holatga kelgan va eposning ang qadimiy bizgacha yetib kelgan qismlari esa miloddan avvalgi 400-yillar deb tahmin qilinadi.<sup>8</sup> Mahabharata - o'zbek tiliga "Shoh Bharataning buyuk avlodlari hikoyasi" deb tarjima qilinadi. Shu bilan birgalikda epos insoniyat tarixida yozilgan eng uzun epik she'r hisoblanadi. Eposda "hikoya ichida hikoya" uslubidan foydalanilgan va hammasi bo'lib 18 ta kitobni tashkil qiladi va mana shu buyuk Bharatalarning buyuk muhorabasi atigi 18 kun davom etadi va jang 5 aka-ukaning g'alabasi bilan yakun topadi.<sup>9</sup> Asarning umumiy hajmi esa 100.000 kuplet yoki 200.000 qator, umumiy hisobda 1 million sakkiz yuz mingta so'zni tashkil etadi, bu degani esa Gomerning "Iliada" hamda "Odisseya" asarlarining har ikkovini qo'shib hisoblaganda ham 10 marta ko'p deganidir. Epos "Ramayana"dan esa 4 barobar katta ekani aytiladi.<sup>10</sup> Qolaversa, "Mahabharata" eposi ko'pincha "Beshinchi Veda" deb ham yuritiladi.<sup>11</sup>

**Xulosa.** Umuman olganda, hidlarning vedalarida odob-axloq, pandona ruhiyat va taqvodorlik ruhi sezilsa, "Maxobxorat" va "Ramayana" eposlari yomonlik qancha buyuk bo'lmasin, ezgulikka taslim bo'lishi va ezgulik hamisha g'olib bo'lishini hayajonli voqealar tizmasi va maxorabalar timsolida tushuntirib beradi.

<sup>6</sup> <https://homework.study.com/> Who first translated Ramayana into English

<sup>7</sup> <https://en.wikipedia.org/wiki/Mahabharata>

<sup>8</sup> <https://en.wikipedia.org/wiki/Mahabharata>

<sup>9</sup> U.Hamdammov, A.Qosimov.-Jahon adabiyoti, Barkamol fayz media 2017, 22-b

<sup>10</sup> [Spodek Howard](#). Richard Mason. The World's History. Pearson Education: 2006, New Jersey.224,0-13-177318-6

<sup>11</sup> Fitzgerald James, India's fifth Veda: The Mahabharata's Presentation of itself, Journal of South Asian Literature.- 1985, P.125-140



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

## Adabiyotlar ro'yxati:

1. Fitzgerald James, India's fifth Veda: The Mahabharata's Presentation of itself, Journal of South Asian Literature.-1985, P.125-140
2. Izzat Sulton Adabiyot nazariyasi.-O'qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent 2005
3. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat Ilmiy tashkiloti Toshkent
4. R.Ch.Majumdar Ancient India.- JP Jain for motilal Banarsidass (P) Ltd
5. U.Hamdammov, A.Qosimov.-Jahon adabiyoti, Barkamol fayz media 2017, 22-b
6. [Spodek Howard](#). Richard Mason. The World's History. Pearson Education: 2006, New Jersey.224,0-13-177318-6
7. <https://textbook.com> The Vedas
8. [https://en.wikipedia.org/wiki/](https://en.wikipedia.org/wiki/Mahabharata) Mahabharata